

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

“KUNTUG‘MISH” DOSTONIDA QO‘LLANGAN REALIYALARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

Meyliyeva Gulrux Sagdullayevna

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, o‘qituvchi.

e-mail: meyliyevagulruh7@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-9822-8629>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining yirik namunasi – “Kuntug‘mish” dostonida qo‘llangan realiyalarning lingvomadaniy xususiyatlari tadqiq etiladi. Doston matnida uchraydigan milliy-madaniy leksik birliklar (etnografik, maishiy, diniy-e‘tiqodiy, ijtimoiy-tarixiy realiyalar) lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqola “Kuntug‘mish” dostonini til va madaniyat birligida o‘rganishga, shuningdek, o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi realiyalarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: “Kuntug‘mish” dostoni, realiya, lingvomadaniy tadqiq, lingvokulturologiya, milliy-madaniy leksika, xalq og‘zaki ijodi, etnografik realiyalar, milliy mentalitet.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РЕАЛИЙ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В ЭПОСЕ “КУНТУГМИШ”

Мейлиева Гулрух Сагдуллаевна

Университет информационных технологий и менеджмента, преподаватель.

Аннотация.

В данной статье исследуются лингвокультурные особенности реалий, использованных в эпосе “Кунтугмиш” – большом образце узбекского устного народного творчества. Национально-культурные лексические единицы (этнографические, бытовые, религиозно-верующие, социально-исторические реалии), встречающиеся в тексте эпоса, анализируются с лингвокультурологической точки зрения. Статья служит для изучения эпоса “Кунтугмиш” в единстве языка и культуры, а также лингвокультурного исследования реалий узбекского устного народного творчества.

Ключевые слова: эпос “Кунтугмиш”, реалии, лингвокультурология, лингвокультурология, национально-культурная лексика, устное народное творчество, этнографические реалии, национальный менталитет.

LINGUOCULTURAL STUDY OF REALITIES USED IN THE EPIC “KUNTUGMISH”

Meyliyeva Gulrux Sagdullayevna

University of Information Technology and Management, Lecturer.

Abstract.

This article explores the linguistic and cultural features of the realities used in the epic “Kuntugmish” a great example of Uzbek oral folk art. The national and cultural lexical units (ethnographic, everyday, religious, and socio-historical realities) found in the epic text are analyzed from a linguistic and cultural perspective. The article serves to study the epic “Kuntugmish” in the unity of language and culture, as well as to conduct a linguistic and cultural study of the realities of Uzbek oral folk art.

Keywords: epic “Kuntugmish”, realities, linguistic and cultural studies, national and cultural vocabulary, oral folk art, ethnographic realities, and national mentality.

Kirish. Doston matnlarida narsa-buyum nomlari bilan bog‘liq realiyalarning muayyan qismi o‘zining arxaiklashgan yoki tarixiy-leksik xususiyatlari bilan yaqqol ajralib turadi. Mazkur fenomenni “saraja” leksemasi hamda uning ifodalagan tushunchasi misolida yanada aniqroq kuzatish mumkin. Ushbu leksema doston matnida quyidagi kontekstual qurshovda qo‘llanilgan:

“To‘rani aslo o‘ziga keltirolmadi. Oxir ikki otga saraja qilib, manzilga olib ketdilar” [1:7].

“Saraja” so‘zi “ikki ot o‘rtasiga o‘rnatilgan zambilsimon tashig‘ich” ma‘nosini anglatadi. Ushbu moddiy madaniyat unsuri boshqa xalqlarning etnografik va lingvomadaniy tizimida deyarli uchramaydi. Shu sababli uning tarjimasida to‘liq semantik va funksional ekvivalentni topish amalda imkonsiz hisoblanadi. Natijada bunday leksemalarni boshqa tillarga o‘girish jarayonida lakunalar (tarjima bo‘shliqlari) yuzaga kelishi muqarrar. Aynan shu lingvistik-madaniy farqlar tarjima matniga maxsus izohlarning kiritilishini obyektiv zaruratga aylantiradi. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, bunday so‘zlar nafaqat intermadaniy, balki intertemporal (tarixiy-zamonaviy) masofani ham o‘z ichiga olganligi bois, ular zamonaviy o‘quvchi uchun ham qo‘shimcha tushuntirishga muhtojdir. Binobarin, izoh matnlarining tarjima jarayoniga jalb etilishi

nafaqat boshqa madaniyat vakillariga, balki o'z ona tilida o'qiyotgan zamonaviy auditoriyaga ham doston realiyalarining to'liq va adekvat idrok etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Lavoziim va kasb-kor nomlarini bildiruvchi realiyalar epik asarlarning lingvomadaniy tizimida muhim o'rin egallaydi. Bunday birliklar nafaqat qahramonlarning jamiyatdagi ijtimoiy maqomini, balki ularning voqealar rivojiga bevosita yoki bilvosita ta'sirini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu realiyalarning asosiy qismi tarixiy-leksik xususiyatga ega bo'lib, o'zbek xalq og'zaki ijodida o'rta asrlar davlat boshqaruvi, harbiy tuzilma va saroy hayotiga xos unvonlarni ifodalaydi. Doston matnlarida uchraydigan qushnoch, darvozabon, qo'rboshi, yasovulboshi, mirg'azab, beglarbegi, chokar, yasovul, mahram, bakovul, shig'ovul, tug'begi, mufti, inoq kabi leksemalar aynan shu turkumga mansubdir. Masalan, "Kuntug'mish" dostonida bosh qahramon qirq yigitini olib, xachirlarini yo'lga solib Zangarga kirganida ularni darvozabon qarshi oladi. "Darvozabon" realiyasi shaharga sutkaning muayyan vaqtlaridagina kirishga ruxsat beruvchi, aholi osoyishtaligi va xavfsizligi uchun to'g'ridan to'g'ri javobgar bo'lgan lavoziim egasini anglatadi. Ushbu obraz nafaqat "Kuntug'mish"da, balki "Ravshan" kabi boshqa dostonlarda ham faol qo'llanilib, ba'zan bosh qahramonlar bilan do'stona munosabatga kirishgan holda tasvirlanadi. Epik matnlarda darvozabonlar, odatda, o'z vazifasiga yuksak mas'uliyat bilan yondashadigan, eng ishonchli va tajribali kishilar orasidan tanlab olingan shaxslar sifatida gavdalanadi. Chunki shahar yoki mamlakat hududiga g'arazli niyatdagi shaxslarni kiritmaslik mas'uliyati aynan ularning zimmasida bo'lgan. "Kuntug'mish" dostonida esa darvozabon obrazi "uch yuz o'ttizga kirgan, Daqqi Yunusni ko'rgan, necha safar shayton bilan bahslashib firib bergan, qarilikni bo'yniga olmay, doim bo'z bola bo'lib yurgan" sifatida ta'riflanadi. Shunga qaramay, u Kuntug'mishning do'st tutinish haqidagi so'zlarining samimiyligiga chin dildan ishonib, mehmonlarni shaharga kiritadi. Bu holat epik an'anada darvozabon obrazining nafaqat funksional, balki axloqiy-psixologik jihatdan ham muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. O'zbek xalqi tarixi va madaniyati bilan tanish bo'lgan o'quvchi uchun "darvozabon" leksemasining mohiyati va vakolatlari qo'shimcha izohsiz ham tushunarli hisoblanadi. Biroq ushbu realiya g'arb o'quvchisi uchun madaniy-tarixiy lakuna hosil qilishi mumkin. Shuning uchun uning tarjimasida qo'shimcha izoh matnlarining kiritilishi intermadaniy muloqotni ta'minlash va epik asarning ijtimoiy-tarixiy kontekstini adekvat yetkazishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). O'rin-joy otlari bilan bog'liq realiyalar doston matnlarining lingvomadaniy tizimida muhim o'rin egallaydi. Bunday leksik birliklar nafaqat ma'lum bir makon nomini ifodalash, balki xalqning turmush tarzi, xo'jalik yuritish an'analari hamda milliy-madaniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Jumladan, obxona, tagi zamin, go'salaxona, sayisxona kabi so'zlar epik asarlarda aynan shu funksiyani bajaradi. Masalan, "go'salaxona" leksemasi o'zbek tilida "buzoqxona" ma'nosini anglatadi. Umumiy "mollar saqlanadigan joy" tushunchasini ifodalovchi "molxona" so'zi boshqa tillarda ham mavjud: rus tilidagi "сара́й", ingliz tilidagi "barn", nemis tilidagi "Scheune" leksemalari aynan shu umumiy ma'noni bildiradi. Biroq "buzoqlar saqlanadigan maxsus bino" ma'nosida qo'llanadigan "go'salaxona" leksemasining to'liq ekvivalentini boshqa tillarda topish deyarli imkonsizdir. Chunki ushbu tushuncha o'zbek xalqining chorvachilik amaliyoti va uy-joy tuzilishiga xos bo'lib, boshqa madaniyatlarda alohida leksik birlik sifatida shakllanmagan. Natijada bunday realiyaning tarjima qilish jarayonida semantik lakuna yuzaga keladi. Shuni ta'kidlash lozimki, "go'salaxona" leksemasi o'zbek tilining zamonaviy leksik tizimida ham saqlanib qolgan bo'lib, u dialektizm sifatida "O'zbek tilining izohli lug'ati"da (O'TIL) qayd etilgan. Bu holat uning nafaqat tarixiy-epik, balki hozirgi kunda ham yashovchan lingvomadaniy birlik ekanligini ko'rsatadi. Shu bois ushbu so'zni boshqa tillarga o'girishda izoh matnlarining kiritilishi tarjima adekvatligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi:

"GO'SALAXONA shv. Buzoqxona, molxona" [2:277].

"Go'salaxona" leksemasi oddiygina molxona yoki buzoqxona ma'nosini bildiruvchi o'rin-joy nomi bilan cheklanib qolmaydi, balki o'zbek xalqining chorvachilik madaniyati, oilaviy hayot tarzi va an'anaviy iqtisodiy tuzumining muhim lingvomadaniy ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi. Doston matnida ushbu realiya qahramonlarning kundalik turmushi, mehnat faoliyati hamda ijtimoiy muhitini jonli va ishonchli tarzda tasvirlashda muhim badiiy detal darajasiga ko'tarilgan. Lingvomadaniy nuqtai nazardan "go'salaxona" xalqning chorvachilik bilan bog'liq asriy an'analari, hayvonlarga bo'lgan munosabati va uy-joy tuzilishidagi milliy o'ziga xoslikni aks ettiruvchi birlik bo'lib, uni boshqa tillarga to'g'ridan to'g'ri ekvivalent orqali tarjima qilish deyarli imkonsiz darajada milliy koloritga egadir. Natijada bu realiyaning tarjima jarayonida madaniy-semantik lakuna hosil qiladi va tarjimon oldida izoh berish, kontekstual moslashtirish yoki transliteratsiya usullaridan birini tanlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shunday qilib, "go'salaxona" kabi o'rin-joy realiyalari "Kuntug'mish" dostonida nafaqat tasviriy vosita, balki xalqning moddiy madaniyati va dunyoqarashini avloddan avlodga yetkazuvchi muhim lingvomadaniy birlik sifatida o'rganilishi lozim. Xalqimizning xo'jalik yuritish madaniyati, uy-joy qurish tartibi haqida "go'salaxona" leksemasining doston matnida qo'llangan quyidagi parchasi orqali ham xulosa chiqarish mumkin:

"Kampir joyidan turib, shahzodaning boshidan parvona bo'lib aylanib, tomining ichida bir go'salaxona – o'rachasi bor edi, ikkovini shu o'raga solib, ustidan taxtasini qo'yib, ustidan po'stagini solib, charxini oldiga olib, paxta ipini yigirdida, o'tirdi" [1:42].

Ushbu tasvir orqali doston qahramonlaridan birining uyi tuzilishi, xususan, "go'salaxona"ning turar joyning ichki qismida, tom ostida joylashishi mumkinligi haqida aniq xulosalar chiqarish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa epik matnning etnografik va madaniy-tarixiy axborot berish salohiyatini yanada ochib beradi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan dostonlarda qahramonlarning ichki va tashqi qiyofasini ochib berish, ularning harakatlantiruvchi kuchi hamda maqsad-muddaolarini yoritish baxshilar tomonidan asrlar davomida tajriba asosida avloddan avlodga yetkazilgan. Epik matnlarda insonning ichki dunyosi va tashqi qiyofasi uni shakllantiruvchi ikki asosiy jihat sifatida namoyon bo'ladi. Qahramonning qaysi millatga mansubligi, tafakkur tarzi, e'tiqodi va madaniy belgilari qanday leksik birliklar orqali ifodalanishi bilan bevosita bog'liqdir. Har qanday millatning tashqi belgisining eng muhim omillaridan biri kiyim-kechaklardir. Turli xalqlarda bir xil vazifani

bajaruvchi kiyim-kechaklar mavjud bo'lsa-da, mato turi, shakli va dizaynidagi farqlar lingvomadaniy nuqtai nazardan leksik birliklar orqali milliy o'ziga xoslikni yuzaga keltiradi. Dostonlarda kiyim-kechak nomlarini o'rganish, ularning tarkibi, leksik-semantik va grammatik xususiyatlarini tadqiq qilish xalq tilining boyligini, shuningdek, xalq madaniyatining ildizlarini, hayot tarzi va tarixiy taraqqiyot yo'nalishlarini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalq dostonlarida, xususan, chakmon, chopon, yaktak, to'n, do'ppi va nimcha kabi kiyim nomlari tez-tez uchraydi. Bu nomlar qadimiy Turon xalqlarining milliy liboslarini aks ettirib, ularning iqlim sharoitlariga moslashganligini ko'rsatadi. Masalan, chopon va to'n sovuq qishda issiqlik saqlaydigan, paxta yoki ipak astarli qalin ustki kiyim sifatida tasvirlanadi, bu esa ko'chmanchi va dehqon hayotining realiyasidan olingan. Ayollar liboslarida ko'ylak, lozim va nimcha kabi atamalar oilaviy holat va yoshga qarab farqlanib, qizlar va ayollar kiyimida rang va yoqa uslublari orqali ijtimoiy mavqeni bildirgan. Umuman, dostonlardagi kiyim nomlari nafaqat badiiy vosita, balki o'zbek xalqining ming yillik madaniy merosi, hunarmandchiligi va urf-odatlarining haqiqiy guvohidir. Ushbu tasvirlar orqali ajdodlarimizning hayot tarzi, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlari haqida qimmatli ma'lumotlar olinadi. "Kuntug'mish" dostoni matnida ham kiyim-kechak realiyalari nafaqat muayyan qahramonlarning jamiyatlardagi maqomi, kiyinish madaniyatini ochib beradi, balki butun xalqning madaniy o'ziga xosligini aniqlashga yordam beradi. Masalan, kavush (kalish), kebanak (astari kigiz, avrasi yung cho'ponlar chakmoni), kiravka (nimchaga o'xshash, ko'pincha sovut ostidan kiyiladigan, metallardan yoki qattiq narsadan qilingan urush kiyimi), kuloh (qalandar qalpog'i), lachak (xotinlarning boshga tang'ib o'raydigan ro'moli) kabi doston matnida uchraydigan so'zlar aynan kiyim-kechak realiyalaridir. Sanalgan so'zlarni boshqa tillarga tarjima qilish jarayonida, tabiiyki, madaniy-semantik bo'shliqlar yuzaga keladi. Bu so'zlarning zamonaviy o'quvchiga tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida dostonning yangi nashrlarida izohlardan foydalanilganligi ham ularni boshqa tilda ifodalash qanchalik murakkab ekanligidan dalolat beradi. Ta'kidlanganidek, kiyim-kechak realiyalari qahramonlarning yashash muhiti, kasb-kori, jinsi, yoshi kabi omillarga bog'liq holda mutanosib ravishda qo'llanadi. Masalan, "kebanak" leksemasi Gurkiboyning katta qilgan cho'ponlar uchun xos bo'lgan kiyim edi. Shu sababli kebanak aka-ukaning ilk bor bir-birini ko'rganlarida Gurkiboyning ustida ekanligi tasvirlanadi:

"Obbo, mug'ambir ekan-a, do'st bo'laman, deb aldab-suldab, mening ustimdagi harna qolgan yuqa choponni olaman deydigansan-da. Menga sen do'st bo'lib, shu kebanakingni berasanmi? Kebanakingga", – deb so'kib bir so'z dedi" [1:107].

Umuman, "kebanak" leksemasi cho'ponlar uchun nihoyatda qulay, dasht sharoitida issiq va sovuqdan himoya qiluvchi amaliy kiyim sifatida tasvirlanadi. Shu bilan birga, yuqoridagi parchada uning kambag'al qatlam vakillari kiyadigan, nihoyatda arzon va oddiy libos ekanligi ham ochiq-oydin namoyon bo'ladi. Ma'lum bo'ladiki, "Kuntug'mish" dostoni orqali berilgan kiyim-kechak nomlari Markaziy Osiyo xalqlari hayotining haqiqiy realiyalarini — iqlim sharoitlari, hunarmandchilik mahorati va urf-odatlarini yorqin aks ettiruvchi muhim badiiy-etnografik vosita hisoblanadi. Ular orqali ajdodlarimizning madaniy merosi, turmush tarzi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari haqida qimmatli tasavvur hosil qilinadi. Oziq-ovqat nomlari bilan bog'liq realiyalar "Kuntug'mish" dostonining bir necha o'rnida faol qo'llanadi. Xususan, bo'za, chulon kabi oziq-ovqat nomlari doston syujetida oddiy detallardan badiiy-funksional ahamiyatga ega bo'lgan elementlar darajasiga ko'tarilgan. Masalan, bolalarning yasovulboshi uyida bo'za ichishi orqali ularning kimligi Xolbekaga ma'lum bo'ladi. Bu leksemaning "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi (O'TIL) izohi quyidagicha:

"BO'ZA I (tariqdan qilingan ichimlik) Oqshoq, tariq, arpa va sh.k. donlardan tayyorlanadigan, kayf beradigan ichimlik. Bo'za solmoq. Bo'za ichmoq. [Otam] bo'za va musallas singari narsalarni sira og'zilariga olmas edilar. M. Muhammadjonov, *Turmush urinishlari*. Bo'za, ayron, qimiz-qumronlar idishlarda dasturxonga tortildi. Mirmuhsin, *Me'mor*" [3:717].

"Bo'za" leksemasi bolalarning qo'lga tushib qolishi tasvirlanar ekan, o'quvchi yasovulboshi uyining aynan qaysi qismida saqlanganligi haqidagi ma'lumotga ham ega bo'ladi. Bu tasvir, umuman, oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, aql-hushni oladigan ichimliklarning o'zbek oshxonasidagi o'rni haqida ham xulosa chiqarishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Realialar xalqning moddiy va ma'naviy hayotini aks ettiruvchi o'ziga xos leksik birliklar bo'lib, badiiy matnga milliy kolorit bag'ishlaydi va o'quvchiga madaniy muhitni chuqur his qilish imkonini beradi. Ular tarjima jarayonida ma'lum qiyinchiliklar tug'dirsa-da, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va turmush tarzini avloddan avlodga yetkazishning muhim vositasi hisoblanadi. "Kuntug'mish" dostoni misolida ko'pkarizozlik, chirishbozlik va garovbastlik kabi hunar nomlari o'zbek yigitlarining kamolotiga xos milliy qadriyatlar va tarbiya tizimini yorqin ifodalaydi. Sandiq kabi uy-ro'zg'or buyumi esa oddiy narsa emas, balki qahramonlar taqdirini bog'lovchi ramziy element sifatida syujetda markaziy o'rin egallaydi. Saraja, darvozabon, go'salaxona kabi tarixiy va mahalliy atamalar o'rta asrlar Markaziy Osiyo hayot tarzi, ijtimoiy tuzumi va xo'jalik madaniyatini jonli tasvirlashga xizmat qiladi. Kiyim-kechak realiyalari (kebanak, chakmon, nimcha, kuloh) qahramonlarning ijtimoiy mavqei, kasbi va iqlim sharoitlariga moslashgan milliy libos madaniyatini ochib beradi. Oziq-ovqat nomlari, jumladan, bo'za kabi ichimliklar esa kundalik hayot va ijtimoiy munosabatlarni batafsil ko'rsatishda muhim badiiy detallar vazifasini o'taydi. Bunday lingvokulturemalar boshqa tillarga to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinmaydi, shuning uchun izoh yoki moslashtirish talab etiladi. Realialar orqali o'quvchi nafaqat xalq nima bilan yashaganini, balki uning nima uchun shunday yashaganini ham anglaydi. Umuman olganda, "Kuntug'mish"dagi realialar xalq og'zaki ijodining boy madaniy merosini saqlash, milliy o'zlikni mustahkamlash va madaniyatlararo muloqotda chuqur tushuncha shakllantirishning qimmatli manbai hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xalq og'zaki ijodi. Kuntug'mish. – Toshkent: Oltin qalam, 2024. – B. 7.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildlik. 2-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B. 277.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati: 6 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2022. – B. 717.